

YOSH YENGIL ATLETIKA SPORTCHILARINI QISQA MASOFALARGA YUGURISH TEXNIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.

**Andijon davlat universiteti
Jismoniy madniyat fakulteti
Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrası
o'qituvchisi Ibragimova Nazokatxon Qaxramonjon qizi**

Anotatsiya: Qisqa masofalarga yuguruvchilarning yillik sikl davomidagi mashg'ulot faoliyati tahlili quyidagi xulosaga kelishga imkon beradi. Ishlab chiqilgan mashg'ulot dasturlari deyarli to'liqligicha bajarildi. Mashg'ulot jarayoni ushbu ko'rsatkich uchun avval ishlab chiqilgan sport formasiga erishish qonuniyatlari asosida tashkil qilindi, tajriba guruhlarida jismoniy va masofaviy tayyorgarlikdagi tahlil qilinayotgan belgilar bo'yicha chetga chiqishlar "oqilona" dinamika sifatida rejalashtirilgan ko'rsatkichlarga mos keladi.

Kalit so'z: spotchi, kalotka, start, sprint, yengil atletikachi, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy rivojlanish, yuklama, tezkorlik.

Annotsion: The analysis of the training activity of short-distance runners during the annual cycle allows us to come to the following conclusion. The developed training programs were carried out almost completely. The training process was organized on the basis of the laws of achieving the sports form previously developed for this indicator, deviations in the analyzed signs of physical and distance training in the experimental groups correspond to the indicators planned as "reasonable" dynamics.

Key words: spotter, helmet, start, sprint, athlete, physical training, physical development, loading, speed.

Аннотация: Анализ тренировочной деятельности бегунов на короткие дистанции в течение годового цикла позволяет прийти к следующему выводу. Разработанные программы обучения были выполнены практически полностью. Тренировочный процесс был организован на основе ранее разработанных для этого показателя закономерностей достижения спортивной формы, отклонения анализируемых признаков физической и дистанционной подготовки в экспериментальных группах соответствуют показателям, запланированным как «разумная» динамика.

Ключевые слова: корректировщик, шлем, старт, спринт, спортсмен, физическая подготовка, физическое развитие, нагрузка, скорость.

Kirish

Mamlakatda yuksak madaniyatga ega bo'lgan har tomonlama yetuk hamda jismonan sog'lom insonni shakllantirish maqsadida aholining jismoniy tarbiya va sport sohasida malaka va bilimlarini orttirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarni belgilash, iqtidorli sportchilarni tanlab olish (selekttsiya) jarayoniga innovatsion shakllar va usullarni joriy etilmoqda. Yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish uchun zarur shart-sharoitlar va infra tuzilmani yaratish, mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2020 yil 24-yanvarda Oliy majlisga murojaatnomasida jismoniy tarbiya va sport sohasiga to'xtalar ekan jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy

tarbiya va sportni yanada ommalashtirish yana bir dolzarb vazifa ekanligini qayd etdi: "Sportni jadal rivojlantirish, xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishgan sportchilarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga bundan buyon ham katta ahamiyat beramiz degan fikrlarini ilgari surdi.

Barkamol shaxs deganda ham jismoniy, ham ma'naviy, ham ruhiy tomondan yetuk, intellektual salohiyatli, jamiyatning har bir talabiga javob bera oladigan, uyg'un rivojlangan shaxs tushuniladi. SHu o'rinda fransuz gumanisti Montening quyidagi qimmatli fikrini keltirish joiz: "Jismoniy tarbiya va ma'naviy tarbiya bir otning oldingi ikki oyog'iga qoqilgan taqaga o'xshaydi, taqalardan biri tushib qolsa, ot oqsoqlanib yura olmaganidek, bu tarbiyalarning biri inson tarbiyasida orqada qolsa inson ham hayotda oqsoqlanib qoladi". Yana bir fransuz faylasufi Tissoning fikrlari ham jismoniy mashqlarning inson hayotidagi tutgan o'rni beqiyos ekanligini ko'rsatadi. U shunday deb yozgan edi: "Jismoniy mashq har qanday dori-darmonning o'rnini bosa olishi mumkin, lekin hech qanday dori-darmon jismoniy mashqning o'rnini bosa olmaydi" Ko'rinib turibdiki, jismoniy mashq inson salomatligining asosiy mezonidir. Yana bir nemis faylasufi Voltershteynning qimmatli fikrlari mavjud: "Baxtimizning o'ndan to'qqiz ulushi sihat-salomatlikga bog'liqdir". Jismoniy tarbiya nazariyasining asoschilaridan biri buyuk faylasuf Abu Ali Ibn Sino «Sog'liqni saqlashning asosiy tadbiri - badan tarbiyadir»degan edi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Hozirgi vaqtda ko'pgina murabbiylar sprinterlik yugurish texnikasi ota individual bolishini va ma'lum bir biomexanikaviy tavsiflarga qaramasdan, sportchining muayyan individual xususiyatlariga, shuningdek, u erishadigan shiddat va tezkorlik darajasiga bog'liq ekanligini e'tirof etadilar. Bu albatta hamma uchun umumiy bo'lgan oqilona texnika elementlarini rad etmaydi, ularni takomillashtirish ustida hozirda ham shug'ullanib kelinadi. Sprinterlik yugurish texnikasini tahlil qilish uchun unda shartli ravishda quyidagilar ajratiladi:

- start;
- start tezlanishi;
- masofa bo'ylab yugurish;
- marraga yetib kelish.

Start. Qisqa masofalarga yugurishda musobaqa qoidalariga binoan past start qo'llaniladi bunda start oyoq tirgaklaridan (stanogidan) foydalaniladi.

Start oyoq tirgaklarining joylashtirilishi o'ta individual bo'lib sportchining malakasiga va uning jismoniy imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi. Yuguruvchi qo'llariga va tirkaklarga tayanadi. Sportchi startga beriladigan buyruqni kutayotib, tirkak bu holatda oyoqlarning tizza bo'g'imidan bukilish burchagi katta ahamiyatga ega. Oldindagi tirkakka tayanib turuvchi oyoqning soni va boldiri o'rtasidagi burchak 92-105o ga orqada turgan oyoqning 115-138o ga teng. Gavda va oldinda turgan oyoqning soni o'rtasidagi burchak 19-23o ga teng. Bunday burchaklar qiymatlaridan past startga o'rgatishda jumladan startga shay turish holatini shakllantirishda foydalanish mumkin. Buning uchun transportyor yoki yog'ochli reykalardan tayyorlangan burchak modellarini qo'llash mumkin. Yuguruvchi startga shay turish holatida ortiqcha zo'riqmasligi va uning harakatlari qisqinib qolmasligi lozim. Lekin ayni vaqtda u qisilgan prujinaga o'xshash holatda turishi kerak. Buyruq berilish bilan harakatni boshlashi, startdan chiqishi kerak. Boz ustiga —Diqqat! va —Marsh» buyruqlari o'rtasidagi vaqt oralig'i musobaqa qoidalarida belgilab berilmagan va start beruvchiga bog'liq. Startga berilgan signalni o'q tovushi ovozli buyruq eshitgan zahoti yuguruvchi bir zumda oldinga

harakatlanishni boshlaydi. Bunda u qo'llarida yo'lkadan va bir vaqtning o'zida orqada turgan oyog'i bilan orqadagi tirgakdan itariladi. Keyin orqada turgan oyoqda oldinga qadam tashlash bilan bir vaqtda oldinda turgan oyoq tirgakdan itarilishini boshlaydi, uning hamma bo'g'imlari keskin yoziladi. Odatda qo'llar oyoqlarga nisbatan qarama-qarshi harakatda bo'ladi.

Startdan yugurib chiqish yuguruvchining individual imkoniyatlariga qarab 15 dan 30 m gacha davom etadi. Uning asosiy vazifasi mumkin qadar tezroq maksimal yugurish tezligini olish. Startdan birinchi qadamlarning to'g'ri bajarilishi yuguruvchining itarilishiga yo'lkaga nisbatan o'tkir burchak ostida maksimal kuch bilan va harakat tezligiga bog'liq. Yuguruvchi birinchi qadamlarni egilgan holatda yuguradi keyin 6, 7- qadamlar gavdani ko'tarishni boshlaydi. Start tezlanishida gavdani asta-sekin ko'tarish juda muhim shundagina startdan va start tezlanishidan optimal samaraga erishish mumkin. Gavda to'g'ri egilganda qadam tashlaydigan oyoq soni tekislangan itariladigan oyoqqa nisbatan 90o ga ko'tariladi va inersiya kuchi yuqoriga qaraganda ko'proq oldinga yo'naltirilgan kuchni hosil qiladi.

Yuguruvchi qadam tashlaydigan oyoqni pastga-orqaga qo'yaturib gavdasini oldinga itargan holda birinchi qadamlarni bajaradi. Bu harakat sonlarni tez birlashtirish bilan birga qancha tez bajarilsa keyingi itarilish shuncha chaqqonroq sodir bo'ladi. Qisqa masofaga yugurishda sportchidan kuch talab qilinib masofani yuqori kuch, tezlik bilan bosib o'tish talab qilinadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigon bo'lsak yengil atletika sport turi inson organizimiga juda zarur sport turlardan bo'lib ,qon aylanish, nafas olish ,tayanch harakat aparati tizimini yaxshilaydi. sportchilarni o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi ,kuchli irodaga ega qilib tarbiyalaydi, oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirishda yengil atletika sport turining o'rni beqiyos hisoblanadi. Qisqa masofalarga yuguruvchilarning yillik sikl davomidagi mashg'ulot faoliyati tahlili quyidagi xulosaga kelishga imkon beradi. Ishlab chiqilgan mashg'ulot dasturlari deyarli to'liqligicha bajarildi. Mashg'ulot jarayoni ushbu ko'rsatkich uchun avval ishlab chiqilgan sport formasiga erishish qonuniyatlari asosida tashkil qilindi, tajriba guruhlarida jismoniy va masofaviy tayyorgarlikdagi tahlil qilinayotgan belgilar bo'yicha chetga chiqishlar "oqilona" dinamika sifatida rejalashtirilgan ko'rsatkichlarga mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvar "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5924 sonli farmoni.

2. Мирзаев М.О. Тактика бега на короткой дистанции: анализ, проблемы, перспективы современный взгляд на подготовку легкоатлетов. Монография. Под редакцией М., 2006. С.54-67.

3. Янсен.П. Основы управления подготовкой юных спорсменов. Под редакцией М., 2002. С. 61-66.

4. Павлова О.И. Комплексная система подготовки квалифицированных легкоатлетов на этапах становления спортивного мастерства. - М., 2003. -С. 9-